

IJOD MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA MATN YARATISH, MATN USTIDA ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH YETAKCHI OMIL SIFATIDA

Iroda Abdurashidova
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi
ijod maktabining ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ona tili o'qitishning bosh maqsadi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini yozma, og'zaki shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: matn, Hamid Olimjon va Zulfiya, Psixologik test, monologik bellashuv, milliy dunyoqarash.

Аннотации

В этой статье утверждается, что основная цель обучения родному языку - развить у учащихся способность мыслить независимо, точно и плавно выражать продукт творческой мысли в письменной и устной формах.

Ключевые слова: текст, Хамид Олимжон и Зульфия, соревнование монологов, национальное мировоззрение.

Annotation

This article argues that the main goal of mother tongue teaching is to develop students' ability to think independently, to express the product of creative thought in written and oral forms accurately and fluently.

Keywords: Text, Hamid Olimjon and Zulfiya, Psychological test, monologue competition, national outlook.

O'qitilayotgan ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijobiy fikrlashga yo'naltirish, fikr muhsulini to'g'ri, ravon, o'rinli ifodalashga o'rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri – matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, uni o'quv amaliyotiga izchil joriy etish, o'quvchini muammoli o'quv topshiriqlari orqali izlanish va kashf qilishga yo'naltirish, o'quvchi lug'at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy faoliyatini shakllantirish, (so'zning lug'aviy ma'nolarini sharhlash) fikr ifodalash (og'zaki nutq va matn yaratish)da so'zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o'quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatni yuksaltiruvchi ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir.

O'quvchini nutqiy madaniyatga, muxtasar matn yaratishga o'rgatishda qarshimizdagi eng dolzarb vazifa – til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish, ona tili mashg'ulotlarida fanlararo aloqani mustahkamlash, matn ustida ishlash orqali o'quvchi so'z boyligini oshirish, maqol, matal, hikmatli so'z, ibora va tasviriy vositalar yordamida nutqiy zaxiralarni boyitishdan iborat. O'quvchiga matn va uning grammatik xususiyatlari, tarkibiy qismlari (kirish, asosiy qism va xulosa),

gap, xatboshi va MSB (murakkab sintaktik butunlik)larni o'zaro bog'lovchi, uslubiy ravonlikni ta'minlovchi tanish belgilari, grammatik bog'lamalar (olmoshlar, kirish so'z va gaplar, modal so'zlar) haqida to'liq ma'lumot berish, ularni o'quv amaliyotiga jadal tadbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Zero, "... lug'at zaxirasi bisyor odamning tili biyron, nutqi ravon bo'ladi..."¹.

Bu muammolar orasida o'quvchilarda mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishning intensiv – universal texnologiyasini yaratish, ana shu maqsadga xizmat qiladigan, matn yaratishning jadallashtirilgan, bosqichli tizimini ishlab chiqish va uni maktab amaliyotiga joriy etish masalasi alohida o'rin tutadi. O'quvchi so'z boyligini oshirishning, uning nutqiy zaxirasini boyitishning eng samarali usuli sathlararo hamda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish (undosh so'zlar ustida ishlash, berilgan so'zning leksik – semantik qurshovi: qaysi so'zlar bilan ishlatilishi, xususiy belgilari miqdorini aniqlash, qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishi, ularning nomlari soni, sifati, holati, harakatini belgilash v.h.) dan iborat. Demak, o'quvchi nutqiy ko'nikmalarini takomillashtirishning asosiy omillari tafakkur mahsulini izchil, to'g'ri, ravon ifodalash, nutqiy vaziyat talabiga ko'ra mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Umuman olganda, DTS talablarini to'la bajarish – o'quvchi kommunikativ savodxonligini ta'minlash masalasi, ona tili ta'limida mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Buning uchun egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning jadal amaliy tatbiqi, ya'ni mustaqil matn yaratish masalasi ona tili darslarida o'rganilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Matn yaratishning mantiqiy davomi – matn ustida ishlash bilan esa matnning tili, mantiqiy va uslubiy shakllanganlik darajasi o'rganiladi, o'quvchining kommunikativ savodxonlik darajasi esa, matn yaratish mahoratini aniqlash jarayonida o'z yechimini topadi.

Ona tilining yangi – yangi ifoda imkoniyatlarini izlab topish va uni dars jarayoniga tadbiq etish o'quvchilarning ijodiy tafakkur, hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez, tanlash, guruhlash, yaratish kabi bilish qobiliyatlarini takomillashtirib, ularda milliy mafkura, mustahkam e'tiqod, milliy dunyoqarashini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Turli til xodisalari (so'z va iboralarni) ma'nosini to'liq anglash va uni xususiy nutqda qo'llashga intilish – ulardan nutqiy vaziyatga mosini tanlash o'z fikrini ixcham, aniq va ravon ifodalash malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi.

O'quvchi ta'lim o'qituvchi tizimida tomonlarning o'zaro hamkorlik, subyekt – subyekt munosabatlari faollashadi, DTS talablariga ko'ra o'quvchi ham ta'lim jarayonining faol subyekt sifatida o'zi mustaqil faoliyat yuritishi: izlanishi, kuzatishi, bajarilgan ishni tahlil qilish, xulosalashi, baho berishi lozim bo'ladi.

Shunday qilib, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi doimiy ishonch o'zaro hamkorlik faoliyatigina o'quvchilarda mavjud bo'lgan mustaqil va ijodiy

tafakkurni qo'zg'atishi, matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishi hamda rivojlantirishi mumkin.

O'qituvchi o'z o'quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy-amaliy faoliyatini samarali tashkil qilish – avvaldan rejalashtirilgan, aniq bir maqsadga – mustaqil matn yaratishga yo'naltira bilishi uchun har bir dars rejasi va dars mavzusi bayonini puxta o'rganib chiqishi, darslikdagi amaliy mashqlar yetarli bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil qilish, kamroq bo'lsa, yangi, qiziqarli mashq namunalari tanlab, qo'shimcha mashg'ulot sifatida mavzuviy rejaga kiritishi, darsni o'zaro musobaqa ruhida olib borishi nihoyatda foydali. O'qituvchi doimiy ravishda o'z o'quvchilarini o'quv amaliyoti jarayonida o'rganganlari yuzasidan o'z xulosalarini aytib berishga undashi, ular tomonidan kiritilgan izlanuvchanlik ruhidagi ijodiy taklif va mulohazalarni, o'z "men"i, iqtidori, iste'dodini namoyish qilishga bo'lgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijobiy-kashfiyotchilik harakatlarini rag'batlantirib borishi, ularga zaruriy shart – sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi (monologik bellashuvlar (quvnoqlar va zukkolar klubi bellashuvi), turli shakl va mazmundagi (nutqiy mahoratni shakllantiruvchi) ko'rik-tanlovlar, debatlar), lozim bo'lsa, o'quvchi shaxsini ma'naviy jihatdan qo'llab- quvvatlashi zarur bo'ladi. O'qituvchi shu tariqa nafaqat o'quvchi bilimini, balki o'zidagi pedagogik mahoratni ham takomillashtira boradi: o'quvchi shaxsi, uning nutqiy darajasi haqida hukm va xulosa chiqarishga shoshilmaslik, o'z vazifasiga mas'uliyat hissi bilan yondashish, o'zida intellektual salohiyatni o'quvchi bilan baham ko'rish, o'zida bag'rikenglik, komil ustozlik fazilatlarini tarbiyalashga o'rganadi. Ona tili o'qituvchisining o'quvchi shaxsiga ana shunday ijobiy va ijodiy yondashuvigina, o'quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi, erkin va mustaqil fikrlashga, o'quvchi uchun juda muhim va zarur hisoblangan til hodisalarini tushunish, undan amaliy foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishga yordam beradi.

“Ona tili ta’limi mazmuni” o’quv-metodik qo’llanmasi mualliflari H.Ne’matov, A.G’ulomovlar o’quvchilarni ijodiy yozma ish – matn ustida ishlashga o’rgatishda egallangan bilimlarni quyidagi ko’nikma va malakalar bilan mustahkamlashni tavsiya qiladilar ².

-“Ijodiy yozma ish” (matn) tushunchasi: rasm asosida hikoya, manzara tasviri, shaxs, hayvon, narsa – buyum, voqeya – hodisa tasviri;

-o’quvchi (muallif) va borliq; yozma ishning maqsadi; yozma ish – o’quvchining (muallifning) o’zligi;

- yozma ishga mavzu tanlash; uni tayyorlash; ayni bir narsa (buyum, manzara, voqeya - hodisa) hamda turli mavzuda matn yaratish;

-yozma ish mazmunining mavzuva uning nomlanishi bilan uyg’unligini ta’minlash;

-berilgan mavzu, erkin mavzu ustida ishlash;

-mavzuni yoritish uchun zarur material: o’quvchining bilimlari, kuzatishlari, taassurotlari, mushohadatlari, qiyos va o’xshatishlari, hukm va xulosalari;

- yozma ishning rejasi, unga qo'yilgan asosiy talablari;
- tor reja, keng reja;
- manzilgohni yozish;
- mavzuni yoritishda mazmun izchilligi; "xat boshi" tushunchasi; yozma ish matni ustida qayta ishlash; uyadosh, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlardan foydalanish;
- matnning uslubi (gap qurilishi), imlosi va tanish belgilari ustida ishlash;
- ishni oqqa ko'chirish;
- xatolar ustida ishlash v.h.

Ta'limning rivojlanuvchi va takomillashib boruvchi texnologiyasi boshqa fanlar qatori ona tili ta'limida ham keng miqyosdagi umumpedagogik vazifani bajaradi. O'quvchi nutqiy mahoratining yuksalib borishi – ona tili ta'limi mazmuni, o'quv jarayoni va uning to'g'ri shakllantirilishiga bog'liqligi isbot talab qilmaydigan haqiqat bo'lsa, nutq tilning ifoda vositalaridan foydalangan holda voqeyilikka aylangan fikrdir. U nutq a'zolarining ongli harakati jarayonida paydo bo'ladi. Ruhiiy hodisa bo'lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o'tgach, haqiqatga aylanadi. Demak, nutqning vazifasi – ong, xotira va tafakkurning uyg'unlikdagi faoliyati mahsulini barcha uchun tushunarli, adabiy me'yoriy shaklga kiritish, uni moddiylashtirish. Rus olimi A.A.Potebnya fikrlash jarayonida so'zning o'rnini juda to'g'ri izohlab bergan edi: "Inson so'z vositasida fikrlaydi, fikr esa so'z vositasida tartiblanadi, voqelanadi, zohir bo'ladi". Sistem tilshunoslikning leksikologiya (so'zshunoslik) bilimiga taalluqli bo'lgan so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarining ona tili ta'limi mazmuniga kiritilishi, til o'qitish metodikasining qon tomiri hisoblangan o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishda yangi, serqirra va mahsuldor imkoniyatlar majmuasini kashf qilinishiga – uyadosh so'zlar ustida ishlashning o'ziga xos texnologiyasini yaratishi va ta'lim amaliyotiga joriy etilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Ona tili ta'limi jarayonida bunday birliklar ustida ishlash – o'quvchi so'z zaxirasini boyitish, ijodiy tafakkurini kengaytirish, muayyan yo'nalishda izlanish va "kashfiyot" qilishga yo'l ochib berish bilan bir qatorda, o'quvchilarda so'zlarni tanlab ishlatish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Shunday topshiriqlar ustida ishlash orqali o'quvchi xotirasida berilgan so'zning ishlatilishi doirasi, ona tili sathlari va ta'lim muassasalarida o'qitiladigan boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi (sathlararo va fanlararo aloqa), so'z birikmalari tarkibida hokim yoki tobe holatda kelishi, ularning gap va matn tarkibida ifodalanishi haqidagi dastlabki amaliy tushunchalar, bilim ko'nikma va malakalar shakllanadi, tarkib topadi. O'quvchining ma'lum til sathlari ustida mustaqil ishlatishi muayyan bir soha va uning atamaları doirasida izlanish, mantiqiy mushohada yuritish, o'zi uchun yangi, notanish bo'lgan so'zlarni kashf qilish faoliyati bilan shug'ullanishdir. Bunday faoliyat esa tabiatan qiziquvchan, ijodkor bola uchun haqiqiy ilmiy – tadqiqot dunyosiga qadam qo'yish bilan barobar. Bunday kichik "tadqiqot"lar natijasida o'rganuvchi subyektning bilish faoliyati jadallashadi, mustaqil matn yaratishning, ijodiy fikrlashning mahsuldor manbalari bo'lmish lug'at zaxirasi kengayadi (atama va tushunchalar muayyan belgilar asosida guruhlariga

birlashadi, guruhlar majmuasini kuzatish, tahlil qilish orqali esa o'quvchi ongida yaxlit bir mazmun – berilgan so'z va uning ma'nodosh, shakldoshlari vositasida berilgan mavzu doirasida o'nlab gaplar quriladi hamda o'quvchi ongida matn loyihasi shakllanadi, ya'ni, ushbu jarayon subyektning bilish jarayoni ketma – ketligi bilan uyg'unlashadi).

Mazkur texnologiya ona tili mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish, darsni zamonaviy, interfaol metodlar asosida tashkil qilish, o'quvchi lug'at zaxirasini so'z gavharlari bilan boyitishning ishonchli va samarali vositasiga aylandi. Ona tili darslarida ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, uyadosh so'zlarni farqlashni o'rganish, ulardan keng va izchil foydalanish – o'quvchi ilmiy dunyoqarashining kengayishi, unda mustaqil fikrlash, nutqiy taraqqiyot jarayonining tezlashuvi, nutqiy barkamollik hamda til ta'limidagi eng dolzarb masala – mustaqil matn yaratishga yo'naltiruvchi BKM manbalarining paydo bo'lishi, tug'ilishi, so'z, so'z birikmalari, tasviriy vositalar holatida shakllanishi va o'quvchi nutqida voqelanishiga sabab bo'ladi. Lug'aviy birliklar ustida ishlash qamrovini kengaytirish, shunday ko'nikma va malakalar hosil qilish bilan muntazam shug'ullanish esa o'z navbatida o'quvchi tomonidan yaratiladigan matnning tili ravon, boy va mazmundor bo'lishiga, matn tarkibidagi imloviy, uslubiy, tautologik (qaytariq) xatolarning kamayishiga olib keladi, o'quvchi shaxsini o'z “men”ini anglab yetishiga, izlanish va ijod qilishga, o'z nutqiy mahoratini rivojlantirish uni o'zgaralar oldida namoyish qilishga undaydi. Zero, umumta'lim va ijod maktablari o'quvchilarini matn yaratishga tayyorlash jarayonini o'quvchini ijodiy mant yaratishga yo'naltirishning zamonaviy texnologiyasini sathlararo va fanlararo aloqalarsiz, lug'aviy birliklar ustida ishlash topshiriqlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ona tili ta'limi mazmunini belgilashda o'quvchining muloqot ko'lami va darajasi, ijodiy tafakkuri, fikr ifodalash ehtiyoji bilan, tavsiya qilingan til vositalari orasidagi mutanosiblik hisobga olinishi yoki aksincha, o'rganilishi lozim bo'lgan til vositalari va me'yorlari miqdorini aniqlashda o'quvchi shaxsining yosh psixologiyasi, tafakkur qobiliyati, savodxonlik darajasi, o'zaro muloqot ehtiyoji, rivojlanish ko'lami hisobga olinishi lozim. Shuningdek, ona tili darsliklarida til mazmunining izchilligini ta'minlash, matn yaratish topshiriqlarini tilning ifoda imkoniyatlarini, o'quvchining mantiqiy tafakkur xususiyatlarini hisobga olgan holda, muayyan tartibda berish, bolaning ko'rish, eshitish, fikrni anglash, analiz va sintez qilish imkoniyati, bosqichma – bosqich fikrlash va fikrni rivojlantira bilish ko'nikmasi hisobga olinishi lozim. Buni amalga oshirish uchun, aniq predmetlarni ifodalovchi so'zlar, ular tarkibidagi nutq tovushlari, bo'g'in, bo'g'in ko'chirish va urg'ularni bosqichma – bosqich o'rgatib borish, so'ngra aniq ma'no va yagona shaklga ega bo'lgan til vositalaridan (mustaqil so'z turkumlari) ma'nodosh (sinonim), uyadosh (bir mavzu, bir oila, bir guruh, tir turga, bir paradigma, qurshovga kiruvchi so'zlar), zid ma'noli (antonim) so'zlarni hosil qilish ko'nikmalarini shakllantirish yaxshi samara beradi. Adabiyot darsliklarida o'rganilgan ijodkorlar asarlari matni ustida ishlash ona tili ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish bilan birga o'quvchilarda leksik birlıklardan matn yaratish jarayonida o'rinni foydalanish ko'nikmalarini ham

shakllantirishga xizmat qiladi. H.Olimjon va Zulfiyaning poetik asarlarida tilshunoslik manbalarida til birliklarining shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra tiplaridan - shakldosh so'zlar (shakldosh so'zlar, omograflar, omofonlar), zid ma'noli, ma'nodosh so'zlardan muhim leksik-stilistik vositalar sifatida o'rinli qo'llanilgan. Bu birliklar badiiy matnning ta'sirchanligi, obrazlilik va jozibadorligi kabi uslubiy vazifalarni bajargan. Chunki ular tilshunos olimlarimiz e'tirof qilganlaridek, adabiyotimiz asarlariga husn beruvchi leksik stilistik omillardan biri hisoblanadi. H.Olimjonda yuqorida tavsiflangan shakldosh so'zlardan **soz** lug'aviy birligining yaxshi so'zlash, ilxom parisi ma'nolarida qo'llashi bu fikrning eng xarakterli dalilidir. Bunday xususiyatni shakldosh so'zlardan hisoblangan "o't" lug'aviy birligi misolida ham kuzatamiz. **o't-olov, o't-maysa** ma'nolaridan tashqari **o'tmoq** fe'lining o'zagidan ikki ijodkor ham badiiy matnning leksik-uslubiy vositasi sifatida foydalangan.

El xonumonin butkul

Sen **o't** yoqib etding kul.

O'ttardi oy-u kunlar.

Qonga g'arq bo'lib tunlar ³.

(H. Olimjon "Oygul bilan Baxtiyor", keyingi o'rinlarda o'sha asar)

Aytilmay qolgani ajab **o't** ekan,

Dil qudug'i sathin urib naq chaqin-

Tuyg'ular!

Tutagan vaqtingiz **o't**gan ⁴. (Zulfiya. "Tymanib aytmagan...")

Antiteza-qarama qarshi qo'yish ya'ni, qarshilantirish ma'no, vazifasini ifodalaydi. Shoir H.Olimjon «Oygul bilan Baxtiyor» poemasi qarshilantirish usulidan unumli foydalangan. **Yolg'on-chin, oy-kun, oq-qora, kecha-kunduz, botir-qo'rqoq, achchiq-shirin, eski-yangi kabi** so'zlardan foydalanib mazmuniy ta'sirchanlikni oshirgan. Ayni chog'da adib ular vositasida tabiat manzaralarini jozibali, obrazli tasvirlagan.

-Kimlar o'ldi, kim omon?

- Jambil edi bir bo'ston, Qilding uni go'riston.

Ma'nolari bir xil yoki o'zaro yaqin bo'lgan, tallaffuz va yozilishi har xil bo'lgan so'zlar ma'nodosh so'zlar deb ataladi. Ma'nodosh so'zlik hodisasi badiiy matnlarda keng qo'llaniladi. Ma'nodosh so'zlarning ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lsa ham, ular o'ziga xos ma'no nozikliklariga ko'ra farq qiladi. Masalan: H.Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonida: "so'yla" leksemasining "so'zla"ga nisbatan badiiyati kuchli. Shu bois shoir she'rida "**so'zla**" leksikasining folklorga xos oddiy so'zlashuvda ham qo'llanadigan "**so'yla**" variantidan o'rinli foydalanganligi tabiiydir:

"Qani so'ylagil, Darxon,

Ne foyda berdi isyon?"

Shuningdek, dostonda ma'nodosh so'zlarning mahorat bilan tanlab olinganligiga guvoh bo'lamiz:

Unga qayg'u bilan zor,

Yuz **haqorat**, ming **ozor**
Bu xonlardan **kuydik** ko'p,
Beklardan **o'rtandik** xo'p.
"Qirq xotin bordir menda", -

Dedi beor, sharmanda
U zim-ziyo **chuqurdan**
Qabrday qo'rqinch **o'rdan**

Ammo elda xor edi,
Kambag'al, nochor edi (o'sha asar)

Ushbu dostonida shoir ijodiga xos bo'lgan shartli ma'nodosh so'zlar ham asar tilining xalqchilligini oshirgan:

Soqchilar zolim xonni,
Bu ajoyib hayvonni

Ardoqli shoiramiz Zulfiyaxonim ijodida ma'nodosh so'z o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi:

Shu choqqacha ishqin qiz faqat,
Dildan so'rab aytgandi dilga.

Ilk, musaffo, katta muhabbat

Qiz dilidan kelmasdi tilga ⁵. (Zulfiya "Muhabbat tongi kulganda")

Ushbu misralarda muhabbat so'ziga aniqlovchi sifatida ilk, musaffo, katta so'zlari keltirilgan. Mazkur so'zlar shu she'r tizimidagina ma'nodoshlik hosil qilgan. Ma'nodosh so'zlik hodisasi fe'l so'z turkumi doirasida keng uchraydi:

Mening sevganimni hali bilmasding,
Tanho o'rtanishdan men oldim lazzat.

Dilimni kemirgan muhabbat sirin,

O'zim ardoqladim, ham qildim izzat ⁶. (Zulfiya "Sening maftuning")

Mazkur bandda ardoqladim-izzat so'zlari ma'nodosh so'z bo'lgan. Bu ma'nodosh so'zlarning ishlatilishi lirik qahramon tuyg'ularining asl holatini ochib berishga xizmat qilgan: lirik qahramon hisoblangan qiz qalbidagi muhabbatni sevganiga aytolmaydi, qalbidagi muhabbat dardi unga azob bersada, qiz bu shirin azobni ardoqladi, izzat qildi.

H.Olimjon va Zulfiya she'rlaridagi har qanday chiroyli so'zlar uyali emas, balki ifodalamoqchi g'oyani, ta'sirchan badiiylikni ta'minlovchi keng iste'moldagi so'zlar qatlamidan tanlab-tanlab olingan leksik vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida tahlil etilgan lug'aviy birliklar asosida o'quvchilarga quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

1-topshiriq. **Psixologik test**. Yuqorida keltirilgan H.Olimjon asarining ("Oyguil bilan Baxtiyor") matn turini aniqlang. Parchani diqqat bilan qayta o'qing. Savollarga javob berib, kichik javob matni tuzing.

To'g'ri javobni belgilang. a) nasriy matn, b) nazmiy matn, v) ilmiy matn, g) badiiy matn, d) ma'rifiy matn.

Savollar:

1. Shoir "ajoyib hayvon" deganda nima yoki kimni nazarda tutmoqda?
2. "Qo'rqinch o'r" nima?

3. Shoirdagi alamning sababini tushuntiring.

“Sizningcha...” metodi. Siz Oygulning o‘rnida bo‘lsangiz, asar davomida yana qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz? Ushbu savolga o‘quvchilar o‘z qarashlarini bildirish orqali og‘zaki matn tuzadilar.

Ijodiy topshiriq. H.Olimjon va Zulfiya asarlarida keltirilgan shakldosh, zid ma‘noli, ma‘nodosh so‘zlarni jadvalga joylashtiring. (Jadval ekranga chiqariladi, uning shakli, tartibini o‘quvchilar o‘zgartirishlari mumkin). Yozgan so‘zlaringiz asosida ixcham matn tuzing.

Yetuk, barkamol kadr bo‘lib yetishish uchun o‘quvchi nafaqat o‘z iqtidori, bilimi va nutqiy malakasini oshirishi zarur, balki o‘zi yashayotgan jamiyatning turlicha ijtimoiy munosabatlar tizimiga tayyor bo‘lmog‘i, ijtimoiy faoliyat yuritish va uni boshqarishning ilmiy qonuniyatlari va qoidalarini mukammal egallamog‘i zarur. Boshqaruv, marketing va menejment sohalarida, ayniqsa inson omili va unga ta‘sir o‘tkazish, uni boshqarishning psixologik tizimini bilish – jamiyatda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish – uni kamol toptirish yo‘lidir. Bu o‘rinda, ayniqsa, ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va ilmiy-ijodiy munosabatlarning shakllanishini, o‘quvchi shaxsining o‘ziga va o‘zgalarga ta‘sir etish mexanizmlaridan biri – ijtimoiy muloqot va uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lmish nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ijodiy fikrlash, mustaqil matn yaratish texnologiyasini mukammal egallashi davr talabidir.

- ¹ Ne'matov H. Bozorov O, Til va nutq, T., "O'qituvchi" 1999, 3,3-bet.
- ² Ziyodova T., "O'quvchi kitobi", A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 2002. 130-bet.
- ³ H.Olimjon, "Oygul bilan Baxtiyor". Yangi asr avlodi, 2017 6-bet
- ⁴ Zulfiya "Saylanma". Nashrga tayyorlovchilar H.Olimjonova, O.Olimjonov.-T.: Sharq, 2016, 10-bet
- ⁵ Zulfiya "Saylanma" Nashrga tayyorlovchilar H.Olimjonova, O.Olimjonov.-T.: Sharq, 2016, 8-bet
- ⁶ Zulfiya "Saylanma" Nashrga tayyorlovchilar H.Olimjonova, O.Olimjonov.-T.: Sharq, 2016, 28-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboeva S.H.Olimjon poemasi ning leksik xususiyatlari: Toshkent 1989.
2. Mirtojiev M. So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari, kitob, "O'zbek tili leksikologiyasi" Toshkent "Fan" 1981 235-293-b.
3. Tursunov U.va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent "O'zbekiston" 1992
4. H.Olimjon, "Oygul bilan Baxtiyor". Yangi asr avlodi, 2017
5. N. Qobul, H. Olimjonova "Yana bahor keldi Sizni so'roqlab..."
6. Shomaqsudov A. O'zbek tili stilistikasi. T.1974 y.